

Birinchi Yordam

10

BOB

ASOSIY TOZALIK VA HIMOYA

Inson jarohat olganda, eng muhim narsalardan biri unga yordam berishdir. Lekin unga yordam berganda, siz o'zingizni OITS va shu kabi qon orqali yuqadigan boshqa kasalliklardan o'zingizni himoya qilishingiz kerak. Agar, biror kishida qonli jarohati bo'lsa, unda:

1. Agar iloji bo'lsa, jarohatlangan odamga jarohat joyiga qattiq bosish yo'li orqali, qonni qanday to'htatishni ko'rsating.

2. Bordiyu, yaralangan odam qonni o'zi to'htata olmasa, unda, siz yordam berayotganingizda qondan saqlanish maqsadida jarohatlangan joyni toza va qalin latta bilan bosishdan oldin, tibbiy qo'lqop yoki toza plastik paket(selofan paket)ni qo'llaringizga kiyib oling.

Qonga burkangan igna yoki boshqa o'tkir narsalardan o'zingizni ehtiyot qiling. Yaralarni quruq va toza bint bilan himoyalang. Ayniqsa, falokat, urishish yoki avariya tufayli ko'pchilik jarohat olgan vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatayotganda ehtiyot bo'ling. Agar qo'lingizga qon yoki odam tanasining boshqa suyuqliklari tekkan bo'lsa, unda tezda sovun bilan yuvib tashlang. Agar, shu kabi suyuqliklar tanangizni boshqa joylariga tekkan bo'lsa (ayniqsa ko'zlarga), unda bu joyni ko'p miqdordagi suv bilan yuvib tashlang.




ISITMA

Agar odamning tana harorati oshsa, biz, uni isitmasi bor deymiz. Isitmaning o'zi kasallik emas, balki turli kasalliklar belgisidir. Shunga qaramay, **yuqori harorat, ayniqsa, bolalarda xavfli bo'lishi mumkin.**

Agar odamda istma bo'lsa:

1. Uning ustini ochib tashlang.

Kichkina bollalar butunlay yechintirilishi va harorat tushgunga qadar yalong'och bo'lishlari kerak




Bu haroratni tushishiga yordam beradi

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Hech qachon bolani kiyintirmang yoki ko'rpaga o'rab qo'ymang.

Isitmasi bor bolani o'rab qo'yish xavflidir.



Bu haroratning yanada ko'tarilishiga olib keladi.

Toza havo yoki shabada isitmasi bor odamga ziyon qilmaydi. Aksincha, shabada isitmaning pasayishiga olib keladi.

2. Shuningdek isitmani pasaytirish uchun aspirin iching (649-bet). Kichkina bolalarga Atsetaminofen (Paratsetamol, 650-bet) berish xavfsizroqdir. Ehtiyot bo'ling! Dorini keragidan ortiq bermang.

3. Har qanday isitmasi bor odam **ko'p suv**, sharbat yoki boshqa suyuqlik **ichishi kerak**. Kichkina bolalarga, ayniqsa, chaqaloqlarga suv (qaynatib sovutilgandan so'ng) berilishi kerak. Bola yaxshi siyayotganiga e'tibor bering. Agar, u siymasa yoki siydigi to'q rangli bo'lsa, yana ham ko'proq suv bering yoki ko'proq emizing.

4. Iloji bo'lsa, isitma sababini toping va davolang.


JUDA YUQORI ISITMA

Juda yuqori isitma tez pasaytirilmasa, xavfli bo'lishi mumkin. U tutqanoq yoki hatto miyaning shikastlanishi (shol, aqliy zaiflik va boshqalar)ga olib kelishi mumkin.

Isitma juda yuqori (40° yoki undan ortiq) bo'lib ketganda, u tez pasaytirilishi kerak:

1. Odamni sovuqroq joyga yotqizing.
2. Barcha ust boshlarini yeching.
3. Yelping.

4. Ustidan suv quyning yoki shu suvda ho'llangan lattani ko'kragiga va peshonasiga qo'ying. Isitma pasaygunga (38° dan past) qadar bu muolajani qilishda davom ettiring.



5. Unga ichgani ko'p-ko'p sovuqroq (juda sovuq emas) suv bering.

6. Isitmani pasaytiruvchi dori bering. Aspirin yoki Paratsetamol (Atsetominofen) yaxshi ta'sir qiladi, **lekin yoshi 12ga to'lmagan bolalarga Paratsetamol bergan xavfsizroq.**

Aspirin va Paratsetamol (Atsetominofen) miqdorlarl (0.5 g.li kattalar tabletkalarini ishlatilganida 650-651-betlarga qarang.):

12 yoshdan ortgan odamlar uchun: har 4 soatda 3 ta tabletkadan

6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun: har 4 soatda 1 tadan

3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun: har 4 soatda 1/2 tadan

3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun: har 4 soatda 1/4 ta tabletkadan (83-bet)

Eslatma: 12 yoshgacha bo'lgan, shamollagan, gripp bo'lgan yoki suv chechagi (650-bet) bor bolalar uchun paratsetamol xavfsizroqdir.

Agar isitmasi bo'lgan odam tabletkaga yuta olmasa, uni tuyib biroz suv bilan aralashtiring va klizma (huqna) yoki ignasiz shprits orqali orqa peshovga yuboring.

Agar yuqori isitma tez tushmasa va tutqanoq boshlansa, suv bilan sovutishni davom ettiring va shu zahoti tibbiy yordamga murojaat qiling.

SHOK

Shok hayot uchun o'ta xavfli holat bo'lib, og'ir darajali kuyish, ko'p qon yo'qotish, og'ir kasallik, suvsizlanish yoki kuchli allergik reaksiya (ta'sir) natijasida kelib chiqadi. Ichki qon ketishi ko'rinmasa ham, shok sababchisi bo'lishi mumkin.


SHOK belgilari:

- tomir urishining tezlashishi va zaiflashishi (1 minutda 100 dan ortiq).
- „sovuq ter“, rang o'chishi, badan terisining sovuq, nam bo'lib turishi
- qon bosimining xavfli darajada pasayib ketishi
- asabiy ko'zg'alish, zaiflik yoki o'zni yo'qotish.

Shokning oldini olish yoki davolash uchun nima qilish kerak:

Shokning birinchi belgilari yoki shok xavfi bo'lganda...

- Odamning boshini oyog'idan sal pastroq qilib yotqizing, mana bunday qilib:



- ◆ Qon oqayotgan bo'lsa, uni to'xtating.
- ◆ Agar kasal sovqotayotgan bo'lsa, uning ustiga ko'rpa tashlab qo'ying.
- ◆ Agar uning hushi joyida bo'lsa va icha olsa, unga kichik-kichik ho'plamlarda suv va boshqa ichimliklar bering. Agar u suvsizlanganga o'xshasa, unga ko'plab suyuqlik va Suvni Tiklovchi Ichimliklardan bering(283-bet).
- ◆ Agar birorta shikastlangan joyi bo'lsa, uni davolash chorasini ko'ring.
- ◆ Agar uning biror joyi og'riyotgan bo'lsa, unga paratsetamol tabletkasini bering.
- ◆ Bemorning ruhini ko'taring va xotirjam qiling.

Agar kasal hushsiz bo'lsa:

- ◆ Uning boshini sal yonboshlatib, pastroq qilib, bir tomonga va orqaga egiltirib (yuqoridagi rasimga qarang) yotqizing. Agar u bo'g'ilayotgandek bo'lsa, tilini barmog'ingiz bilan oldinga torting.
- ◆ Agar qayt qilgan bo'lsa, shu zahoti og'zini tozalab qo'ying. U qayt qilsa, o'pkasiga ketmaydigan qilib, boshini pastroq, orqaga egiltirib va yonboshlatib yotqizib qo'ying.
- ◆ U hushiga kelgunga qadar, og'zi orqali hech narsa bermang.
- ◆ Agar yon atrofingizdagi biror kishi yoki o'zingiz venaga yuboriladigan suyuqliklarni (osma ukol, misol: 5 [%] foizlik glyukoza, 0.9 [%] foizlik NaCl va boshqalar) tez qilishni bilsangiz, ushbu muolajani tez qiling.
- ◆ Tezda tibbiy yordamga murojaat qiling.


HUSHDAN KETISH

Hushdan ketishning oddiy sabablari:

- mastlik
- boshiga zarb tegishi
- shok(170-bet)
- tutqanoq, quyanchiq (331-bet)
- ruhiy holat (juda qattiq qo'rqish, quvvatsizlik va boshqalardan o'zini yo'qotish).
- issiqlik elitishi(176-bet)
- miyaga qon quyilishi (insult) (583-bet)
- yurak xuruji (infarkt) (580-bet)
- kuchli zarb bilan yiqilish
- zaharlanish (209-bet).

Agar odam hushsiz bo'lsa va sababini bilmasangiz, quyidagilarning har birini darhol tekshiring:

1. U yaxshi **nafas olyaptimi**? Agar yaxshi nafas olmayotgan bo'lsa, boshini orqaga eging, jag'ini oldinga torting va tilini tashqariga chiqarib qo'ying. Tomog'iga biror narsa tiqilib qolgan bo'lsa, uni olib tashlang. Agar, u nafas olmayotgan bo'lsa, og'izdan og'izga nafas oldirishni shu zahoti boshlang (174-bet).



Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

2. U **ko'p qon yo'qotyaptimi**? Agar shunday bo'lsa, qon oqishini tez to'xtatishga harakat qiling (177-bet).


3. Agar u **shokda** bo'lsa (nam, rangi o'chgan teri; zaiflik, tezlashgan puls), uni boshini pastroq qilib, kiyimlarini bo'shatib yotqizing (170-bet).

4. Agar uni **issiq elitgan** bo'lsa (bunda bemor terlaydi-yu, harorati ko'tarilib, (badan terisi qizaradi va issiq bo'lib turadi) bemorni oftobdan salqin joyga olib o'ting, boshini oyoqlaridan baland qilib yotqizing hamda sovuq suv bilan namlang (iloji bo'lsa muzdek suv bilan) va elping (176-bet).

Hushsiz odamni qanday yotqizmoq kerak:

juda rangi o'chgan:
(shok, o'zini yo'qotish va
boshqalar)

Badan terisi normal yoki qizarib
ketgan rangda: (issiqlik zarbasi,
insult, yurak muammolari, bosh
shikastlanganda)



Agar hushsiz odam qattiq shikastlangan bo'lsa:

U hushiga kelmagunga qadar uni joyidan siljitmagan ma'qul. Agar uni siljitish shart bo'lsa, bunda juda ehtiyot bo'ling, chunki agar bo'yni yoki beli singan bo'lsa, har bir noto'g'ri harakat ham yanada og'irroq shikastlarga olib kelishi mumkin (201-bet). Jarohat yoki singan suyaklarni izlang, lekin iloji boricha odamni kamroq siljiting. Bel va bo'yinini egmang.

Hushsiz odamga uning og'zidan hech narsa bermang

AGAR TOMOQQA BIROR NARSA TIQILIB QOLGAN BO`LSA

Agar odamning tomog`iga ovqat yoki biror narsa tiqilib qolsa va u nafas ololmasa, **tezda** quyidagilarni qiling:



- Uni belidan buking
- Kaftingiz bilan uning kuragining o`rtasiga 5 marta qattiq uring

Agar bu yordam bermasa, unda:



- Orqasida turib, qo`llaringiz bilan belini aylantirib ushlang.
 - mushtingizni, kindikdan teparoqqa va qovurg'alardan pastroqqa qilib, qorniga qo`ying.
 - va qornini birdaniga tepaga qaratib **kuch va shiddatlik bilan** o`zingizga torting.
- (Semiz odamlar, homilador ayollar, nogironlar aravachalaridagi odamlar yoki yosh bolalar uchun qo`lingizni qorniga emas, balki ko`krigiga qo`yganingiz ma`qul).

Bu o`pkalardagi havoni chiqishga majbur qiladi va tomoqni bo`shatadi. Kerak bo`lsa buni bir necha marta qaytaring.

Agar bu odam sizdan ancha katta yoki u hushidan ketib qolgan bo`lsa, tezda quyidagilarni qiling:

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Nafas olmayotgan odam 4 minut yashashi mumkin! Siz juda tez harakat qilishingiz kerak!

Og'izdan og'izga nafas berishni o'sha zahotiy oq boshlang (keyingi betga qarang), agar iloji bo'lsa, bu ishni cho'kkan odamni suvdan olib chiqmasdanoq, tursa bo'ladigan sayoz joydayoq boshlang. Agar siz o'pkasiga havo kirgiza olmasangiz, bunda qirg'oqqa yetgan zahoti boshini tezgina bir tomonga eging, oyoqlarini balandroq ko'taring va qornini yuqorida aytilgandek qilib bosning. So'ng og'izdan og'izga nafas berishni davom ettiring.

• Agar u hali ham nafas ola olmayotgan bo'lsa, og'izdan og'izga nafas berishga harakat qiling (keyingi betga qarang).



CHO'KISH

- Uni chalqancha yotqizing.
- Boshini yonbosh tomonga qarating.
- Ko'rsatilgandek qilib ustiga o'tiring, kaftingizni kindik va qovurg'alari o'rtasiga qo'ying. (Semiz odamlar, homilador ayollar, nogironlar aravachalaridagi odamlar yoki yosh bolalar uchun qo'lingizni qorniga emas, balki ko'kragiga qo'yganingiz ma'qul).
- Qo'lingizni tepaga qaratib qattiq bosning. Agar kerak bo'lsa, bu harakatni bir necha marta takrorlang.



HAR DOIM cho'kkan odamning ko'kragidan suvni chiqarib yuborishga harakat qilishdan avval **TEZDA OG'IZDAN OG'IZGA NAFAS BERISHNI BOSHLANG**

NAFAS TO'XTAGANDA NIMA QILISH KERAK:
OG'IZDAN OG'IZGA NAFAS BERISH

Nafas to'xtashining odatdagi sabablari:

- odam tomog'iga biror narsa tiqilib qolganda
- hushsiz odamning tili yoki quyuq shilimshig'i tomog'ini to'sib qolganda

- cho`kish, bo`g`ilish yoki zaharlanishda
- boshi yoki ko`kragiga qattiq urilganda
- yurak xuruj(infarkt)ida nafas to`xtab qolishi mumkin

Odam 4 minut ichida nafas olmasa, u o`lib qolishi mumkin. Tezda harakat qiling!

Agar odamda nafas to`xtab qolgan bo`lsa, og`izdan og`izga nafas berishni SHU ZAHOTI boshlang

Quyidagilarni iloji boricha tezroq boshlang:



1 - bosqich: Tomog`iga tiqilgan narsani barmog`ingiz bilan olib tashlang. Tilini oldinga chiqaring. Agar tomog`ida shilimshiq bo`lsa, uni tez tozalashga harakat qiling.



2 - bosqich: Tez, lekin ehtiyotkorlik bilan yuzini tepaga qaratib yotqizing. Boshini orqaga asta sekin eging va jag`ini oldinga torting.

3 - bosqich: Burnini barmoqlaringiz bilan berkiting, og`zini katta oching. Shundan so`ng, og`zingizni uning og`ziga qo`yib o`pkasiga ko`kragi ko`tariladigan darajada qattiq puflang. To`xtang, ichidagi havo chiqishiga - fursat bering, shundan so`ng yana puflang. Taxminan har 5 sekundda qaytaring. Kichik bolalar va chaqaloqlarning burniga ham og`zini og`zingiz bilan qoplagan holda **asta** puflang.(taxminan har 3 sekundda).



Odam o`zi nafas ola boshlamaguncha yoki uning o`lganiga shubha qolmagunga qadar og`izdan og`izga nafas berishni davom ettiring. Ba`zan, bir soat yoki undan ham ko`proq vaqt davomida harakat qilishingiz kerak bo`ladi.

Eslatma: Agar odamning og`zi qonayotgan bo`lsa, OITS va sariq kasal yuqtirmaslik maqsadida og`izdan og`izga nafas bermagan ma`qul.

ISSIQLIK NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN KUTILMAGAN HODISALAR

ISSIQLIK TA'SIRI:

Belgilari: Issiq havoda qattiq ishlagan va ko'p terlagan odamlarning ba'zan oyoq, qo'llarda pay tortishi yoki qorinning burab og'rishi kabi hodisalar kuzatiladi. Buning sababi, organizmda suv va tuz kamayib ketganligidir.

Davolash: bir choy qoshiq tuzni bir litr qaynagan suvga aralastiring va iching. Ichimlikni og'riq barham topgunicha har soatda qayta qayta iching. Shu holatdagi odamni salqin joyga o'tqazing va og'riyotgan joylarini asta massaj qiling.



ISSIQLIKDAN SILLA QURISHI

Belgilari: Issiq havoda ishlagan va ko'p terlagan odam juda rangi o'chib, holsizlanishi va ko'ngli aynishi, ba'zan hushidan ketishi ham mumkin. Terisi nam va muzdek. Tomir urishi tezlashgan va sust. Tana harorati odatda normal (101-bet).

Davolash: Odamni salqin joyga yotqizing yoki o'tqazing, oyoqlarini ko'taring va ishqalang. Tuzli suvdan ichgani bering: 1 litrga 1 choy qoshiq tuz (Odam hushsizligida uning og'zidan hech narsa bermang).

ISSIQLIK ZARBI (ELITISHI)

Issiqlik zarbi ko'p uchramaydi, lekin juda xavfli bo'ladi. U ko'pincha havo issiqligida katta yoshdagi odamlar, semiz va aksari piyonistalarda kuzatiladi.


Belgilari: Badan terisi qip-qizarib, juda issiq va quriq bo'lib turadi. Hatto qo'ltiqlaridan ham nam qochadi. Odamning harorati juda yuqori, hatto 42°S dan ham ortiq bo'ladi. Ko'pincha u hushdan ketadi.

Davolash: Tana harorati zudlik bilan pasaytirilishi kerak. Odamni salqin joyga qo'ying. Uni sovuq (iloji bo'lsa muzdek) suv bilan namlang va yelping. Bu amalni isitma tushguncha davom ettiring. Tibbiy yordamga murojaat qiling.

„ISSIQLIKDAN SILLA QURISHI” bilan „ISSIQLIK ZARBI”
ORASIDAGI FARQ

ISSIQLIKDAN SILLAN-
ING QURISHI

- terlagan, rangi o'chgan, sovuq teri
- ko'z qorachig'i kattalashgan
- isitmasi yo`q
- holsizlik



ISSIQLIK ZARBI

- teri quruq, qizargan, issiq
- yuqori harorat
- odam qattiq kasal yoki hushsiz

Sovuq natijasida kelib chiqadigan kutilmagan hodisalar haqida 744-745-betlardan o'qing.

JAROHATDAN OQAYOTGAN QONNI QANDAY QILIB
TO'XTATISH MUMKIN

1. Jarohatlangan tomonni balandga ko'taring.

2. Jarohatlangan joyni qon oqishi to'xtaguncha toza va qalin latta bilan (yoki latta bo'lmasa qo'lingiz bilan) bosib turing. Bu 15 minut, ba'zan 1 soat yoki undan ko'proq vaqtni ham olishi mumkin. Jarohatni shu tariqa to'g'ridan **to'g'ri bosib turish** yo'li bilan deyarli barcha jarohatlardan oqayotgan qonni to'xtatish mumkin - ba'zan, hatto tananing biror qismi kesib tashlanganda ham.



Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Bosib turish bilan ba'zan qonni to'xtatib bo'lmaydi, ayniqsa, jarohat juda katta bo'lganda, qo'l yoki oyoq kesib tashlanganda uni to'xtatish qiyin. Agar, shunday holatlar yuz bersa va odam qon yo'qotishdan o'lishi mumkin bo'lsa, quyidagilarni qiling:

- ◆ Jarohatni bosib turishda davom eting
- ◆ Jarohatlangan qismni iloji boricha tepaga qo'taring
- ◆ Qo'l yoki oyoqni jarohatga yaqin joydan bog'lang. Qonni to'xtatish uchun bog'lamga burama solib oyoqni qising
- ◆ Bog'lash uchun buklangan latta yoki keng kamar ishlatning; hech qachon ingichka arqon, ip yoki sim ishlatmang
- ◆ Qon to'htaganini ko'rishdan oldin uni 20 daqiqa bosib turing. Qo'lingiz charchagan bo'lsa boshqa qo'lingiz bilan bosing. Bosib turish oson ish emas - taslim bo'lmang!



EHTIYOT CHORALARI:

Jarohatni bosish yo'li bilan qonni bosib turish orqali to'xtata olmasangiz, ana shundagina, qo'l yoki oyoqni bog'lang.

- Bog'lam hali ham zarurligini tekshirish va qon aylanishini ta'minlash maqsadida uni har yarim soatda bo'shatib turing. Bog'lamni uzoq vaqt qoldirish oyoq yoki qo'lni ishdan chiqarishi mumkin. Natijada qo'l yo oyoqni kesib tashlash kerak bo'ladi.
- Qonni to'xtatish uchun tuproq, kerosin kabi iflos narsalardan **hech qachon** foydalanmang.
- Agar qon oqishi kuchli yoki jarohat og'ir bo'lsa, shokning oldini olish maqsadida bemor oyoqlarini ko'tarib, boshini pasaytirib qo'ying (170-bet).

BURUNDAN OQAYOTGAN QONNI QANDAY TO'XTATISH MUMKIN

1. Tinch o'tiring.
2. Burundagi qon va shilimshiqni chiqarib tashlash uchun sekin asta burningizni qoqing.
3. Burunni 10 minut yoki qon to'xtaguncha qattiq qisib turing.



Agar bu qonni to'xtatmasa...



Agar iloji bo'lsa, paxtani *vazelinga* ho'llab oling (uning o'rniga eritilgan qo'y yog'i ishlatilsa ham bo'laveradi) va paxtani uchi burundan biroz chiqib turadigan qilib kirgizib qo'ying.

So'ng burunni yana qattiq qising. Lekin 10 minutdan ortiq qisib turmang. Boshni orqaga qayirmang.



Paxtani qon to'xtagandan so'ng ham bir necha soatga qoldiring; so'ng uni asta sekin olib tashlang.

Katta odamlarda qon burunning orqa qisidan oqishi mumkin va uni qisish bilan to'xtatib bo'lmaydi. Bunday hollarda, ushbu odamga tishlab turgani po'kak, makka o'zagi kabi kichik narsalarni bering va qon to'xtamagunga qadar oldinga engashib, tinch, iloji boricha yutinmasdan o'tirishga harakat qilsin. (Po'kak uning yutinmasligiga va qonning tezroq ivishiga yordam beradi).



Oldini olish:

Agar burnidan tez-tez qon oqib tursa, bunday odam burnining ichiga ozgina *vazelinni* kuniga 2 mahal surtishi kerak. Yoki tuzli suvda burnini chayqasin (303-bet).

Apelsin, pomidor, bulg'or qalampiri va S (L) vitaminiga boy boshqa meva - chevalarning iste'mol qilinishi tomirlarni mustahkamlaydi va burun kamroq qonaydi.

Infeksiya tushishining oldini olishda hamda jarohatning tezroq tuzalishiga yordam berishda eng avvalo tozalikka e'tibor berilishi kerak

Jarohatni davolash uchun...

Birinchidan, qo'lingizni yaxshilab sovun bilan yuving.

So'ng, jarohat atrofini qaynatib sovutilgan suv bilan sovunlab yuving.

Endi esa jarohatni o'zini qaynatib sovutilgan suv bilan yuving (agar jarohat ifloslangan bo'lsa, sovunlab yuving. Sovun tozalaydi, ammo go'shtni (muskulni) shikastlashi mumkin)



Jarohatni tozalayotganingizda, barcha iflos narsalarni olib tashlaganingizga e'tibor bering. Archilib ketgan teri ustini ham tozalang. Kir zarralarini olib tashlash uchun toza qisqich (pinset) yoki toza latta yoki bint ishlatishingiz mumkin, ular sterillangan bo'lishi uchun, avval ularni qaynatib oling.

Agar iloji bo'lsa, jarohat ustiga shprits yoki rezinali baloncha orqali suv soching.

Jarohat ichida qolgan har qanday kir zarrasi infeksiya sababchisi bo'lishi mumkin.

Jarohat tozalangandan so'ng ustini toza bint yoki latta bilan bog'lab qo'ying. U jarohatning tuzalishiga yordam beruvchi havoni o'tkazadigan darajada yengil bo'lishi kerak. Latta yoki bintni har kuni almashtirib turing va infeksiya belgilari paydo bo'lganligiga e'tibor bering (186-bet).

Qaynatib sovutilgan
SUV



Jaroxatlarga xech kachon xayvonlar yoki odamlar axlati, siydigini yoki loyni HECH QACHON qo'ymang. Ular qoqshol kabi xavfli infeksiyalar sababchisi bo'lishi mumkin.

Jarohatning o'ziga hech qachon spirt, yod eritmasi yoki zelyonka surtmang; bu go'shtni shikastlaydi va tuzalishini sekinlashtiradi.

KATTA KESILGAN JOYLAR: ULARNI QANDAY BERKITISH KERAK

Endigina kesilgan, hali toza, turli infeksiyalar tushib ulgurmagan joyning ikki tarafini birlashtirsangiz, u tezroq tuzalib ketadi.


Quyidagi shartlarning hammasi to'g'ri kelsagina kesilgan joyni berkiting:

- Kesilganiga hali 12soat bo'lmagan bo'lsa.
- Kesilgan joy toza bo'lsa.
- Jarohatni o'sha kuni tikib yopish uchun tibbiyot xodimini topishning ilojisi bo'lmasa.

Kesilgan joyni yopishdan avval, uni qaynatib sovutilgan suv bilan yaxshilab yuving (agar jarohat iflos bo'lsa, sovunlab yuving). Agar iloji bo'lsa, shpritsdan suv sepib uni tozalang. Kesilgan joyda kir yoki sovun qolmaganiga e'tibor bering.

Quyida jarohatni yopishning ikki usuli berilgan (leykoplastir yoki ip bilan):

**LEYKOPLASTIR (yopishqoq lentadan)DAN „KAPALAKSIMON”
BOG'LAM SOLISH**




CHOK SOLIB YOKI IP BILAN TIKISH


Tikish zarurligini bilish uchun kesilgan joyning qirg'oqlari bir biriga yopishib kelish-kelmasligini tekshiring. Agar jarohatning qirg'oqlari bir biriga yopishib kelayotgan bo'lsa, tikish kerak emas.

Jarohatni tikish uchun:

- ◆ Ishlatiladigan igna hamda ingichka ipni (neylon-suniy ip, yoki eng yaxshisi ipakni) 20 minut davomida qaynatib.
- ◆ Yuqorida aytilganidek, jarohatni qaynatib sovutilgan suv bilan yuving.
- ◆ Ko'llaringizni yaxshilab qaynatib sovutilgan suvda yuving.
- ◆ Jarohatni quyidagicha qilib tiking:



QANDAY YAXSHILAB
TUGISH MUMKIN



Birinchi chokni jarohat o'rtasida uni yopib turadigan qilib tuing (1 va 2).

Agar teri qalin bo'lsa, ignani qaynatilgan qisqich (yoki igna ushlovchi) yordamida ushlang.

Jarohatni to'la yopishib turishi uchun zarur bo'lgan boshqa choklarni ham tuing.

Choklarni 5 kundan 14 kungacha qoldiring (yuzda bo'lsa 5 kun; tana-da bo'lsa 10 kun; qo'l yoki oyoqda bo'lsa 14 kun). So'ng choklarni oling: uni ip tugunning bir tomonidan ipni kesing va ip chiqib ketgunga qadar torting.

DIQQAT: Faqat juda toza va kesilganiga 12 soatdan oshmagan jarohlarnigina tiking. Eski, kir yoki infeksiyalangan jarohlarni ochiq bo'yicha qoldiring. Odam, it yoki boshqa hayvonlar tishlagan joylar ham ochiq qoldirilishi kerak. Ularni yopib qo'yish xavfli infeksiyalarga olib kelishi mumkin.

Agar yopilgan jarohatda birorta infeksiya belgilari bo'lsa, choklarni shu zahoti olib tashlang va jarohatni ochiq qoldiring (186-bet).

BOG'LAMLAR

Bog'lamlar jarohlarni toza tutish uchun ishlatiladi. Shuning uchun, jarohatni qoplab turuvchi bint yoki lattalar birinchi o'rinda toza bo'lishi kerak. Boglam uchun ishlatiladigan lattalarni obdon tozalab yuving, so'ng dazmollash bilan yoki toza, chang yo'q joyda quyosh nurida quritish kerak.


Albatta, jarohatni dastlab 180-betda aytilganidek qilib tozalang. Agar iloji bo'lsa, jarohat ustini avval steril bint bilan qoplang, so'ng bog'lang. Bunday bintlar ko'pincha dorixonalarda sotiladi.

Yoki o'zingiz toza bint yoki latta tayyorlang. Uni qalin qog'ozga o'rang, leykoplastir bilan yopishtiring va 20 minut duxovkada qoldiring. Duxovkadagi latta ostiga kastyulkada suv qo'yib qo'ysangiz, latta kuyib qorayib ketmaydi.

Ho'l yoki iflos bog'lamni boylagandan ko'ra uni bog'lamagan yaxshiroqdir.

Agar bog'lam ho'l bo'lib, ichiga kir o'tsa, uni olib tashlang. Kesilgan joyni qayta yuving va toza bog'lam qo'ying. Bog'lamni har kuni almashtirib turing.

Bog'lash namunalari:



Eslatma: Bolalarning qo'l yoki oyog'ining bitta barmog'ini bog'lagandan ko'ra qo'l yoki oyoqni butunlay bog'lagan ma'qul. Bog'lam unchalik tez tushib ketmaydi.

OGOHO BO'LING:

Qo'l-oyoqlardagi bog'lamlar qon aylanishini to'xtatadigan darajada kattiq bog'lanmaganiga e'tibor bering.

Salgina kesilgan va shilingan joylarda bog'lamlar qo'yishning ko'pincha hojati yo'q. Ularni sovunlab yuvib, toza havoda ochiq qoldirilgani yaxshi. Eng muhimi **ularni toza tutishdir.**


INFEKSIYALANGAN JAROHATLAR: ULARNI QANDAY ANIQLASH VA DAVOLASH KERAK

Jarohat infeksiyalangan bo'lsa, quyidagi belgilarga ega bo'ladi:

- jarohat **qizarsa, shisha va lovullab og'risa**
- **yiringlasa**
- yoki **sasiy boshlasa**, jarohatga infeksiya tushgan bo'ladi.

Infeksiya tananing boshqa qismlariga tarqay boshlagan bo'ladi, agar:

- **isitma kelib chiqsa**
- jarohatlangan joyda **qizil chiziqlar** paydo bo'lsa,
- yoki **limfa tugunlari shishib, tekkanda og'risa**. Limfa tugunlari— ko'pincha „bezlar“ deb ham ataladi. Mikroblar to'planib qolib, infeksiya tushganda, ular kattalashib teri ostida tugunlar hosil qiladi.



Infeksiyalangan jarohatlarni davolash:


- ◆ Jarohatning ustiga kuniga 4 mahal 20 minutdan issiq kompresslar qo'ying. Yoki infeksiyalangan qo'l yoki oyoqni issiq suvli idishga soling.
- ◆ Infeksiyalangan joyni dam oldiring va ko'tarib qo'ying (yurakga nisbatan sal teparoq qilib).
- ◆ Agar og'ir infeksiya bo'lsa yoki bemor qoqsholga qarshi emlanmagan bo'lsa, ukolli penitsillin antibiotiklarini ishlatish (629 -bet).

EHTIYOT BO'LING: Agar jarohat sasiy boshlasa va unda jigar rang yoki kul rang suyuqlik oqib chiqsa boshlasa yoki jarohat atrofidagi teri qorayib, havo to'lgan pufaklar hosil bo'la boshlasa, bu gangrena (qorason) bo'lishi mumkin. Tez tibbiy yordamga murojaat qiling. Tibbiy yordam kelgunga qadar, qorason (gangrena) xususida 399-betda ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlarga amal qiling.

XAVFLI INFEKSIYA TAHDIDINI SOLADIGAN JAROHATLAR

Quyidagi jarohatlar xavfli infeksiya tahdidini soladi:

- iflos narsalardan yetgan jarohatlar
- sanchilishdan hosil bo'lgan jarohatlar va ko'p qonamaydigan boshqa chuqur jarohatlar
- hayvonlar boqiladigan joylarda: molxona, cho'chqaxonalar va boshqa joylarda yetgan jarohatlar
- qattiq ezilgan yoki ko'kargan katta jarohatlar
- tishlangan joylar, ayniqsa it yoki odamlar tishlagan bo'lsa
- o'q jarohatlari



Bunday „yuqori xavfli“ jarohlarda quyidagicha muolaja qiling:

1. Jarohatni qaynatilgan suv bilan yaxshilab sovunlab yuving. **Undagi barcha iflos narsalar, ivib qolgan qon lahtalari, o'lik yoki ezilib ketgan muskul va teri parchalarini olib tashlang.** Jarohatning iflos joylarini shprits yoki rezinali balonchadan suv sochib yuving.
2. Agar jarohat juda chuqur bo'lsa, tishlangan o'rnida yoki jarohatlangan yerda hali ham iflos borligiga shubhalansangiz, Penitsillin kabi antibiotik ishlatning. Eng yaxshisi penitsillin. Agar penitsillin bo'lmasa, ampitsillin, eritromitsin, tetratsiklin, ko-trimoksazol yoki sulfamilamidlardan ishlatishingiz mumkin. Dorilarning miqdorlari haqida, Yashil Sahifalarga qarang.
3. Bunday jarohatlarni **hech qachon** tikmang yoki „kapalak“ bog'lamlari bilan bog'lamang. **Jarohatni ochiq qoldiring.** Agar jarohat juda katta bo'lsa, malakali tibbiyot xodimi uni keyinroq berkitishi mumkin.

Qoqsholga qarshi emlanmagan odamlarning ushbu og'ir kasallik bilan kasallanish xavfi juda yuqoridir. Xavfni kamaytirish uchun, odam, shunday jarohat olgan zahoti, qoqsholga qarshi emlangani yaxshi, yoki unga qarshi zardobni olishi kerak.

Agar jarohat og'ir jarohlardan bo'lsayu kasal qoqsholga qarshi emlanmagan bo'lsa, u bir hafta yoki ko'proq muddat davomida u katta miqdorlarda penitsillin yoki ampitsillinni qabul qilishi kerak. Shuningdek, qoqshol antitoksinini (652-bet) ham ishlatish kerak, lekin ot zardobidan tayorlangan antitoksinini ishlatish haqida 159-betdagi ehtiyot choralari ko'rganligingizga e'tibor bering.

Bordiyu, jarohat hayvonlar tishlashi oqibatida kelib chiqib qutirish havfi bo'lsa, tezda jarohat olgan odam tezda immunizatsiya qilinishi kerak. (273 - bet)

O'Q, PICHOQ VA BOSHQA NARSALARDAN YETGAN JIDDIY JAROHATLAR



Infeksiya xavfi: O'q yoki pichoqdan yetgan har qanday jarohatlarda jiddiy infeksiyalanishning xavfi kuchli. Shuning uchun o'sha zahoti penitsillin (629-bet) yoki ampitsillin (634-bet) qabul qilishni boshlash kerak.

Qoqsholga qarshi emlanmagan odamlarga, iloji bo'lsa, qoqshol anti-toksini berilishi (652-bet) va ular qoqsholga qarshi emlanishi kerak.


Agar iloji bo'lsa, tibbiy yordam oling.

Qo'l Yoki Oyoqdagi O'q Jarohatlari



- ◆ Agar jarohatdan ko'p qon oqayotgan bo'lsa, 177-betda ko'rsatilgan-dek qilib qonni to'xtating.
- ◆ Agar qon ko'p oqmayotgan bo'lsa, jarohat biroz qonagani ma'qul. Chunki, bu jarohatning tozalanishiga yordam beradi.
- ◆ Jarohatni qaynatilgan sovuqroq suv bilan yuving va unga toza bog'lam qo'ying. O'q tekkan jarohatlarda, jarohatning faqat yuzasini yuving. Teshilgan joyiga hech narsa qo'ymaganingiz ma'qul.
- ◆ Antibiotiklar ishlating.

OGO'H BO'LING:



Agar o'q suyakka tekkanligi ehtimol bo'lsa, suyak singan bo'lishi mumkin.


Bunda qo'l yo oyoqni ishlatish yoki og'irlik ko'tarish (masalan tikka turish) mana bunday jiddiy suyak sinishiga sabab bo'lishi mumkin:

Agar singanligi taxmin qilinsa, oyoq yoki qo'lni taxtakachlab qo'ying va bir necha hafta ishlatmang.



Jarohat jiddiy bo'lgan hollarda, jarohatlangan qismni yurakka nisbatan balandroqqa ko'taring va bemorning tinch yotishini ta'minlang.

Bunday holda jarohat tezroq tuzaladi va infeksiyalanish xavfi kamroq.



HA



Jarohatlangan oyoqda yurish, uni pastga osiltirib o'tirish, jarohatning sekinroq tuzalishiga va infeksiyalanish xavfining ortishiga olib keladi.

YO'Q




O'q tegib yaralangan jarohatlangan yoki boshqa jiddiy jarohat yetgan qo'lni shunday qilib bog'lang

Ko'krakning Chuqur Jarohatlari

Ko'krak jarohatlari juda xavfli bo'lishi mumkin. Darrov tibbiy yordamga murojaat qiling.

- ◆ Agar jarohat o'pkagacha borgan va odam nafas olayotganda havo teshikdan kirayotgan bo'lsa, jarohatni havo kirmaydigan qilib bog'lang. Toza bintli bolishchaga vazelin yoki o'simlik yog'i surtib teshikni rasmda ko'rsatilgandek qattiqqilib bog'lang:




OGOHO BO'LING: (Agar qattiq bog'lam nafas olishni qiyinlashtirsa, uni biroz bo'shating yoki butunlay olib qo'ying.)

- ◆ Jarohatlangan odamni, unga eng qulay bo'lgan holatda yotqizing.
- ◆ Agar shok belgilari bo'lsa, uni to'g'ri davolang (170-bet).
- ◆ Antibiotik va og'riq qoldiruvchi dorilardan bering.

Boshdagi O'q Jarohatlari

- ◆ Odamni yarim o'tiradigan qilib joylashtiring.
- ◆ Jarohatni toza bint bilan bog'lang.
- ◆ Antibiotik (penitsillin) ishlating.
- ◆ Tibbiy yordam oling.



Qorin Sohasidagi Chuqur Jarohatlar

Har qanday qorin yoki ichak sohasidagi jarohatlar xavflidir. **O'sha zahoti tibbiy yordamga murojaat qiling.** Lekin unga qadar:

Jarohat ustini toza doka yoki latta bilan yoping.

Agar ichaklar tashqariga chiqib qolgan bo'lsa, ularning ustini toza, biroz tuzli, qaynatilgan iliq suvda namlangan doka yoki latta bilan yopib turing. Ichaklarni qayta joyiga solishga urinmang. Latta qurib qolmasligi kerak, bundan xabardor bo'lib turing




Agar kasal shok holatida bo'lsa, uning oyoqlarini boshidan baland qilib ko'tarib qo'ying.

Og'iz orqali hech narsa bermang:

Ovqat ham, suyuqlik ham, hatto suv ham bermang, faqat tibbiy yordam olinguncha 2 kun o'tib ketadigan bo'lsa, suv bering. Shunda ham faqat kichik ho'plamlarda bering.

Agar jarohatlangan odam uyg'oq va chanoqagan bo'lsa, unga suv bilan namlangan lattani so'rgani bering.



Jarohatlangan odamning gorni shishgan va bir necha kundan beri ichi kelmagan bo'lsa ham, hech **qachon klizma (huqna) qilmang.** Agar ichak uzilib ketgan bo'lsa, klizma yoki ich yurguzuvchi (suruvchi) dori jarohatlangan odamni nobud qilishi mumkin.


Antibiotik ukolini qiling (ma'lumot olish uchun keyingi betga qarang).



**TIBBIYOT XODIMINI KUTIB
O'TIRMANG.**

**JAROHATLANGAN ODAMNI
TEZDA ENG YAQIN SHIFOXO-
NAGA OLIB BORING.**

Uni operatsiya qilish kerak.



OSHQOZON ICHAK JAROHATLARI UCHUN DORILAR
(Shuningdek, appenditsit yoki peritonitlarda ham ishlatiladigan dorilar)

Shifokor yordamini olguningizga qadar, quyidagilarni qiling:

Har 4 soatda ampitsillin ukolini qilib turing (634-bet), (2ta 500 mg.li ampula).

Agar ampitsillin bo'lmasa:

Penitsillin qiling (iloji bo'lsa, Benzilpenitsillin natriy yoki kaliy, 629-bet), o'sha zahoti 5 million ED.; undan so'ng 1 million ED. har 4 soatda.

Penitsillin bilan birga Gentamitsin 240-320mg. (tana vaznining har kilogrammiga taxminan 5 mg dan) kuniga bir mahal yoki Levomitsetin (Xloramfenikol) (639-bet), har 6 soatda 250 mg li ampulalardan 2 tadan ukol qiling.

**ICHAKKA ALOQADOR KUTILMAGAN (TEZ DAVOLANILISHI
KERAK BO'LGAN) MUAMMOLAR**

Appenditsit, peritonit va ichak tutilishi (keyingi betlarga qarang) ichak kasalliklarining kutilmagan, og'ir holatlariga misoldir, bunda o'limning oldini olish uchun tezda jarroh yordami kerak. "O'tkir qorin" deb ana shu holatni aytiladi. Ayollarda, salpingit yoki bachadondan tashqari homilalar

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

ham “o'tkir qorin” sababi bo'lishi mumkin. Ko'pincha jarroh qorinni kesib, ichini ko'rmagunga qadar, o'tkir qorin og'rig'ining sababini bilish qiyin.

Agar odamning ichagi qattiq va uzoq og'riyotgan bo'lsa, u ko'ngli aynib qayt qilsa, lekin ichi o'tmasa, unda “o'tkir qorin” bo'lishi mumkin.

O'TKIR QORIN OG'RIG'I muammolari:

Shifoxonaga olib boring— jarrohning tez yordami kerak bo'lishi mumkin

- Uzoq davom etayotgan va kuchayayotgan qattiq og'riq
- ich qotishi va ko'ngil aynishi
- qorin shishgan, qattiq, kasal uni ushlatmaydi
- bemorning dardi jiddiyga o'xshaydi

UNCHA JIDDIY BO'LMAGAN KASALLIKLAR:

Uyda yoki tibbiyot maskanlarida davolanish mumkin.

- og'riq kelib, so'ng yo'qolib ketadi (spazm)
- o'rta yoki og'ir ich ketar
- ba'zan shamollash yoki tomoq og'rig'i kabi infeksiya belgilari
- kasalda bunday og'riqlar oldin ham bo'lib turgan
- bemorning dardi yengilga o'xshaydi.

Agar odamda “o'tkir qorin” belgilari bo'lsa, uni iloji boricha tezroq shifoxonaga olib boring.

Ichak Tutilishi (To'silishi)

Biror narsaning ichakka tiqilib qolishi, ichakning buralib qolishi yoki „tutilib qolishi” o'tkir qorin og'rig'ining sababi bo'lishi mumkin. Bunday holatda ichakdan ovqat va axlat o'tmay qoladi. Asosiy sabablari:

- askarida qurtlarining tugilib, to'planib qolishi (263-bet)

- churra(grija)da ichak tuguni qisilib qolishi (330-bet)
- ichakning bir qismi uning yo'g'onroq qismining ichiga kirib qoladi (ichaklar invaginatsiyasi)
Deyarli hamma "o'tkir qorin" holatlarida tutilishi, ba'zan esa uning ayrim belgilari kuzatiladi. Chunki tiqilib qolgan narsa shikastlangan ichakda harakatlansa, u ichakni og'ritadi. Shuning uchun, u harakatni to'xtatadi.

Ichak tugilishining belgilari:

Qorin sohasidagi qattiq va doimiy og'riq bo'ladi. Ushbu bolaning qorni shishgan, qattiq va tegilsa qattiq og'riydi. U qornini ehtiyot qilishga harakat qilib oyoqlarini bukib olgan. Uning qorni ko'proq „jim“ turadi. (Qorninga qulog'ingizni tutsangiz, siz qorindagi normal g'uld-irashlarni eshitmaysiz.)

Qattiq kuch bilan birdaniga qayt qilish! Qusug'i bir metr yoki undan ham ko'proqqacha sochilishi mumkin. Qaytning tarkibida zangori zardob yoki u axlatning hidi va rangiga ega bo'lishi mumkin.

Odatda uning ichi qotib qolgan (ichi kelmaydi yoki biroz keladi). Ichi kelsa ham ozgina keladi xolos. Ba'zan kelayotgan narsa qon aralash shilimshiqdan iborat bo'ladi, xolos.




Bunday odamni **iloji boricha tezroq** shifokorga olib boring. Uning hayoti xavf ostida va unga tezda jarroh kerak bo'lishi mumkin.

APPENDITSIT, PERITONIT

Ushbu xavfli holda ko'pincha jarroh yordami kerak bo'ladi. Tez tibbiy yordam chaqiring.


Appenditsit - chuvalchangsimon o'simtaning infeksiyalanishidir. Ushbu o'simta yo'g'on ichakdaning barmoqchalik keladigan o'simtasi bo'lib, u qorin o'ng tarafining pastki qismida joylashgandir. Ba'zan infeksiyalangan o'simtaning yorilib ketishi peritonitga olib kelishi mumkin.

Peritonit - qorin pardasining yallig'lanishi, og'ir kasallikdir. Bu o'simta yoki biror boshqa ichakning yorilishi yoki uzilib ketishi natijasida kelib chiqadi.




Appenditsit belgilari:

- Asosiy belgisi - qorinda kuchayib borayotgan doimiy og'riq bo'lishi.
- Og'riq ko'pincha kindikdan boshlanadi lekin keyin pastga, o'ng tomonga siljiydi.
- Bunda ishtaha yo'qolib odam, qayt qilishi, ichi qotishi, harorat biroz ko'tarilishi mumkin.




APPENDITSIT YOKI PERITONITLIGINI
TEKSHIRISH:



Kasalni yo'taltiring va u qorin sohasida og'riq paydo bo'lish yoki bo'lmasligiga qarang.


Yoki qorin bo'shlig'ini chap chov tepasidan sekin, lekin kuch bilan biroz og'riguncha bosing. So'ng tez qo'yib yuboring.



Agar qo'lingizni tez olganingizdan so'ng qattiq og'riq (Blyumberg simptomi) paydo bo'lsa, bu appenditsit yoki peritonitdan darak beradi.

Agar chap chov tepasini bosganingizda og'riq paydo bo'lmasa, o'ng chov tepasini ham bosib ko'ring.

AGAR ODAMDA APPENDITSIT YOKI PERITONIT BORG A O'XSHASA:



◆ **O'sha zahoti tibbiy yordamga murojaat qiling.**

Uni jarroh bor joyga olib boring.

◆ **Og'zi orqali hech narsa bermang va klizma(huqna) qilmang.** Faqat odamda suvsizlanish belgilari paydo bo'la boshlasa, unga kichik ho'plamlarda suv yoki shakar va tuz qo'shilgan Suvni Tiklovchi Ichimlik sifatida (283-bet) bering, unga boshqa hech narsa bermang.

◆ Ushbu odam yarim o'tirgan holda tinch dam olishi kerak.

Eslatma: Peritonit og'irlashganda, qorin taxtadek qattiq bo'lib qoladi va u salgina tegilganda ham qattiq og'riydi. Bu bemorning hayoti xavf ostida. Uni zudlik bilan tibbiyot markaziga olib boring va 193-bet yuqorisida ko'rsatilgan dorilarni qiling.

BADAN KUYISHI

Oldini olish:

Ko'pincha kuyishning oldini olish mumkin.


Bolalarga alohida e'tibor bering:

◆ Yosh bolalarni o't oldida yurishiga yo'l qo'ymang.

◆ Chiroq va gugurtlarni bolalar ololmaydigan joyga qo'ying.

◆ Pechkadagi qozon tovoqlarning dastalarini bolalar ololmaydigan qilib qo'ying.

◆ Kimyoviy moddalarni yopiq idishlarda va bolalar ololmaydigan joyda saqlang



Pufaklar hosil qilmaydigan - yengil kuyish (1-daraja)

Engil kuyishda og'riq hamda shikastlanishni kamaytirish uchun kuygan joyni **darrov** sovuq suvga soling. Aloe ham yordam beradi (79-bet). Boshqa hech qanday davo usullarining keragi yo'q. Og'riqqa qarshi aspirin iching.

Pufaklar keltirib chiqaruvchi kuyish, kimyoviy moddalar va elektr tokidan kuyish (2-daraja)

Pufaklar, ya'ni qovarchiqlarni teshmang. Uning ustiga muz qo'ymang.

Agar pufak teshilib ketsa, o'sha joyni qaynatib sovutilgan suvda sovunlab yuving. Suv bilan taxminan 30 daqiqa chaying. Toza dokani yara ustiga qo'ying, lekin uning ustini bosmang. Yarani hech qachon yog'lamang. Kuygan joyga **asal** yoki **aloe** etini surtish infeksiyaning oldini olishga va yaraning tezroq tuzalishiga yordam beradi. Avval surtilgan eski asalni yoki aloeni asta yuvib tashlang va o'rniga kuniga kamida 2 marta yangisini surting.

Kuygan joyni iloji boricha toza saqlang. Uni iflos tegishi, kir, chang va pashshalardan ehtiyot qiling.

Agar infeksiya belgilari: yiring, yomon hid, isitma, yoki limfa tugunining shishishi singari hodisalar paydo bo'la boshlasa, kuniga 3 mahal tuzli iliq suvda (1 osh qoshiq tuz 1 litr suvga) kompress qiling. (Agar iloji bo'lsa, 1 oshqoshiq xlorli ohakdan ham qo'shing) Suv va lattani ishlatishdan avval qaynating. O'lik etlar juda ehtiyotkorlik bilan olib tashlang. Siz Baneotsin kabi antibiotik yog'lardan surtishingiz mumkin. Og'irroq hollarda penitsillin yoki ampitsillin kabi dorilarni iching.

Chuqur Kuyish (3-daraja)

Teri qattiq shikastlanib, kuyib qorayib ketgan go'shtning chiqib qolishi yoki kimyoviy moddalar tanaga tegib bir necha soat mobaynida ham paydo bo'lmaydigan kuyishlar, yoki tananing ko'p qismining kuyishi chuqur kuyishga kiradi. Jarohatlangan odamni tez tibbiy xizmat markaziga olib boring. Kuygan joyini toza latta yoki sochiq bilan yopib turing. Agar tibbiy yordam olishning iloji bo'lmasa, kuygan joyni yuqorida aytilgandek davolang.

Agar *vazelin*ingiz bo'lmasa, kuygan joyni ochiq qoldiring. Uni faqat chit yoki choyshab bilan chang va pashshalardan saqlash uchun ustini berkitib qo'ying. Lattani juda toza saqlang va kuygan joydan chiqayotgan qon yoki suyuqlikdan kir bo'lib qolganida har safar uni almashtirib turing. Penitsillin bering.


Kuygan joyga hech qachon yog', teri, kofe, turli o'simliklar barglarini qo'ymang.

Juda Jiddiy Kuygan Odam uchun Maxsus Muolajalar

Jiddiy kuygan har qanday odam turli a'zolarining og'rishi, ko'nglini vahima bosishi va kuygan joydan ko'p suyuqlik chiqib, organizmi suvsizlanishi natijasida osongina shokka tushishi mumkin (170-bet).

Kuygan odamni qulay qilib yotqizing va unga dalda bering. Unga og'riqqa qarshi aspirin, agar topa olsangiz kodein bering. Kuygan joylarni ozgina tuzli suvga solish ham og'riqni biroz pasaytiradi. Qaynatib sovutilgan suvning har litri uchun 1 choy qoshiq tuzdan soling.

Kuygan odamga ko'p suyuqlik bering. Agar kuygan joy kaftining kattaligidan 2 marta ortiq bo'lsa, quyidagi ichimlikni tayyorlang:




Kuygan odam iloji boricha ushbu ichimlikdan siyungga qadar tez-tez va ko'proq ichib turishi kerak. Agar kuygan joyi katta bo'lsa, kuniga 4 litr suyuqlik ichishga harakat qilishi kerak, biroq juda katta joy kuygan bo'lsa, 12 litrgacha suyuqlik ichishi kerak.

Qattiq kuygan odamlar uchun oqsilga boy ovqatlarni iste'mol qilish, ayniqsa muhimdir (220-bet). Hamma xildagi ovqat yeyilishi mumkin.

Bo'g'imlar Atrofining Kuyishi

Agar odam barmoqlarining orasi, qo'ltig'i yoki biror boshqa bo'g'imining atrofi kuysa, tuzalgan sari bir biriga birlashib ketmasligi uchun ularning orasiga vazelin surtilgan bint qo'yilishi kerak. Shuningdek, barmoqlar, qo'llar va oyoqlarni tuzalgan sari kuniga bir necha marta dan rostlab to'g'ri qilib turish kerak. Buni qilish juda og'ir, lekin bu qotib qolib, harakatni cheklovchi chandiq'larning oldini oladi. Kuygan qo'l tuzalayotgan davrda barmoqlar biroz egilgan holda bo'lgani ma'qul.



SUYAK SINISHI

Suyak singanda eng muhimi **uni siljitmaslikdir**. Bu qattiqroq shikastlanishning oldini oladi va siniqning bitib ketishiga yordam beradi.

Suyagi singan odamni o'rnidan siljitish yoki ko'tarishdan avval, singan suyagini tayoq, daraxtning to'g'ri shoxi yoki kartondan qilingan taxtakachlar yordamida siljimaydigan qilib mahkamlang. Keyinchalik, tibbiyot maskanida qo'l yoki oyoqqa gips qo'yilishi mumkin yoki o'zingiz, shuningdek mahalliy tabiblar uslubiga binoan „gips“ tayyorlashingiz mumkin (81-bet).


Singan suyaklarni joyiga qo'yish: agar suyaklar ma'lum darajada o'zo'rnida turganga o'xshasa, ularni siljitmagan ma'qul. Suyakni siljitishning foydasidan zarari ko'proq.

Agar suyak yaqin orada singan va bo'laklari joyidan siljigan bo'lsa, siz uni joyiga qo'yish yoki to'g'rilashga harakat qilib ko'rishingiz mumkin.

Ular qancha tez joyiga tushirilsa, shuncha oson tuzaladi. O'rniga qo'yishdan avval, iloji bo'lsa og'riqni kamaytirish va muskullarni bo'shatish uchun diazepam ukolini qiling (665-bet) yoki kodein bering).

SINGAN BILAKNI JOYIGA QO'YISH

Qo'lni, suyaklarni ajratish uchun bir xil kuch bilan 5 minutdan 10 minutgacha bo'lgan vaqt davomida asta-sekin o'zingizga torting.



Bitta odam singan qo'lni tortib tursa, ikkinchi odam esa suyaklarni asta to'g'rilab qo'yishi kerak.




EHTIYOT BO'LING: Suyakni to'g'rilash jarayonida unga ko'p shikast yetkazishingiz mumkin. Iloji bo'lsa, bu muolaja tajribali odam yordamida qilinishi kerak. Keskin yoki kuchli harakatlar qilmang.

SINGAN SUYAKNING TUZALISHIGA QANCHA VAQT KETADI?

Siniqning qanchalik tez bitishi uning og'ir-yengilligi va odamning yoshiga bog'liq bo'ladi. Bolalar suyagi tez tuzalib ketadi. Ba'zi qari odamlarning suyaklari hech qachon birlashmaydi. Singan qo'l bir oyga yaqin gipsda turishi, keyingi oy davomida esa kuch talab qiladigan ishlarini bu qo'l bilan qilmaslik kerak. Singan oyoq esa 2 oy gipsda turishi kerak.

CHANOQ YOKI SON SUYAGI SINGANDA

Chanoq yoki son suyagining singanida alohida e'tibor kerak bo'ladi. Eng yaxshi usul butun tanani quyidagicha qilib taxtakachlab qo'yib,



jarohatlangan odamni tez tibbiyot maskaniga olib borish kerak.

BEL VA BO'YIN SUYAKLARI SINGANDA

Agar odamning bo'yni yoki beli singanini taxmin qilsangiz, uni o'rnidan **siljitishda juda ehtiyot bo'lishingiz kerak**. Uning yotgan holatini o'zgartirmaslikka harakat qiling. Iloji bo'lsa, uni siljitishdan avval tibbiyot xodimini olib kelganingiz ma'qul. Uni o'rnidan siljitish shart bo'lsa, bo'yni va belini egmasdan siljiting. Jarohatlangan odamni siljitish bo'yicha ma'lumotlar olish uchun keyingi betga qarang.

QOVURG'A SINGANDA

Bu juda og'ir, lekin deyarli har doim o'zi tuzalib ketadigan jarohatdir.

Ko'krakni taxtakachlamagan va bog'lamagan ma'qul. Eng yaxshi davosi aspirin ichib, dam olish. O'pkalarni sog'lom saqlash uchun, har 2 soatda bir maromda 4 dan 5 martagacha chuqur nafas oling. Bunda dastlab qat-tiq og'riq sezishingiz mumkin.

Bu mashqni odatdagiday nafas olishni boshlagungizga qadar har kuni qiling. Og'riq butunlay yo'qolib ketishiga qadar oylab vaqt o'tishi mumkin.

Singan qovurg'a, odatda o'pkani teshib qo'ymaydi. Lekin, qovurg'a sinib tashqariga chiqib qolgan bo'lsa yoki odam qon yo'talsa yoki nafas olishda qiynalsa (og'riqdan tashqari), antibiotik ishlatning (penitsillin yoki ampitsillin) va tibbiy yordamga murojaat qiling.


SINGAN SUYAKNING TERIDAN TASHQARIGA CHIQUIB TURISHI (OCHIQ SINIQLAR)

Bunday hollarda, infeksiyalanish xavfi juda katta bo'lgani uchun jarohatlar bo'yicha mutaxassis tibbiyot xodimi yordamini olganingiz ma'qul. Jarohat va chiqib turgan suyakni qaynatilgan sovuq suv bilan asta yuving. Toza latta bilan ustini yopib qo'ying.

Jarohat va suyak toza bo'lmaguncha suyakni hech qachon jarohat ichiga solmang.

Shikast kattalashib ketmasligi uchun oyoq yoki qo'lni taxtakachlab qo'ying.


Agar suyak terini teshgan bo'lsa, infeksiyaning oldini olish uchun: Tsefazolin, penitsillin yoki ampitsillin kabi antibiotiklar ishlatilg.



OGOHO BO'LING: Singan yoki singanga o'xshab turgan oyoq yoki qo'lni hech qachon ishqalamang va uqalamang ham.

JUDA QATTIQ JAROHATLANGAN ODAMNI QANDAY QILIB SILJITISH KERAK

Jarohatlangan odamni hech qaysi a'zosini egiltirmay juda katta ehtiyotkorlik bilan ko'taring. Uning bo'yni va boshi qayrilib ketmasligiga alohida e'tibor bering.



Boshqa bir odam zambilni kasalning yoniga qo'ysin.

Ko'pchilik yordamida ja-rohatlangan odamni asta zambilga qo'ying.



qattiq
bolishchalar

Agar bo'yin jarohatlangan yoki singan bo'lsa, boshi siljib ketmasligi uchun boshni har tarafiga qattiq bolishchalar yoki qum to'ldirilgan qopchalar qo'ying.

Ko'tarib ketayotganingizda, hatto tepalikka olib chiqayotganda oyoq tarafini yuqoriroq tutishga harakat qiling.


CHIQIQLAR (BO'G'IMLARDAGI SUYAKLARNI O'RNIDAN CHIQISHI)

Davolashning 3 ta eng muhim yo'l-yo'rig'i:

- ◆ Suyakni joyiga qo'yib ko'ring. **Qancha tez bo'lsa, shuncha yaxshi!**
- ◆ Joyida turgan holida qayta chiqib ketmaydigan qilib uni qattiq bog'lab qo'ying (taxminan bir oyga).
- ◆ Qo'l yoki oyoqqa kuch keladigan ishlarni, bo'g'in to'la tuzalib ketgunga qadar (2 yoki 3 oy) qilmang.

Chiqqan Yelka Bo'g'imini Joyga Solish

Jarohatlangan odamni stol kabi qattiq yuzali joyga pastga qaratib, jarohatlangan qo'lini esa stol chekkasidan osiltirib qo'ying. Qo'lni pastga, pol tarafiga qattiq va bir xil kuch bilan 15 minutdan 20 minutgacha tortib turing. So'ng asta qo'yib yuboring. Shunda yelka „sapchib“ joyiga tushishi kerak.



Yoki qo'lga 5-8 kg. og'irlikdagi yukni joylashtiring (5 kg. dan boshlang, ammo 8 kg. dan ortmasin) va o'sha joyda 15 mindan 20 minutgacha qoldiring.



Yelka joyiga tushgandan so'ng, qo'lni qattiq qilib tanaga bog'lab qo'ying. Bog'lam 2 hafta tursin. Keksa odamlar yelka egilmaydigan bo'lib qolmasligi uchun, ular bog'lamni kuniga 3 mahal bir necha minutga echib turishlari kerak, bunda qo'llar yon tomonga tushirilgan, shikastlangan qo'l esa astagina kichik-kichik aylanma harakatlar qilishi lozim.

Agar siz yelkani o'rniga qo'ya olmasangiz, tez tibbiy yordamga murojaat qiling. Yelka suyagining uzoq vaqt chiqib turishi, uni o'z joyiga tushishini qiyinlashtiradi.

ET UZILISHI, CHO'ZILISHI VA PAYLARNING SHIKASTLANISHI (PAY CHIQISHI VA LAT YEYISHI)

Ko'p hollarda qo'l yoki oyoq lat yeganda, et uzilgan yoki suyak singanligini aniqlash qiyin. Rentgen suratiga tushirish, uni aniqlashga yordam beradi.

Lekin siniqlar va uzilishlarga ko'pincha deyarli bir xil davo qilinadi.

Bo'g'imning qimirlamaydigan bo'lishiga e'tibor bering. Uni mahkam tutadigan narsa bilan bog'lang. Jiddiy uzilishlarning tuzalishiga kamida 3 yoki 4 hafta ketishi mumkin. Singan suyaklarning tuzalishi uchun esa ko'proq vaqt ketadi.

Og'riq hamda shishlarni yo'qotish uchun shikastlangan joyni baland qilib ko'tarib qo'ying. Dastlab bir yoki ikki kun davomida latta yoki sselofanga o'ralgan muzni yoki sovuq, ho'l lattani shishgan bo'g'in ustiga har soatda 20 mindan 30 minutgacha qo'yib turing. Bu og'riq va shishni pasaytiradi. 24 yoki 48 soatdan keyin (shishning kattayishi to'xtagandan so'ng), et uzilgan joyni kuniga bir necha mahal issiq suvga solib turing.



Birinchi kuni et uzilgan joyni sovuq suvga soling




Bir yoki ikki kundan song issiq suvga soling

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Paylarning to'g'ri tuzalishi ularni to'g'ri holatda saqlab turishingiz, uyda yasalgan gips(81-bet) yoki elastik bog'lam(bint) qo'l kelishi mumkin.

Oyoq va to'piqni elastik bint bilan bog'lash shishning oldini olishi yoki pasaytirishi mumkin. Oyoq barmoqlaridan tepaga qarab ko'rsatilgandek qilib bog'lab keling.

Bog'lamni juda qattiq qilib bog'lab yubormaslikka harakat qiling va har 1 yoki 2 soatda bo'shatib turing. Shuningdek, aspirin iching.



Agar shish va og'riq 48 soatda ham qolmasa, tibbiy yordamga murojaat qiling


OGOHO BO'LING: Uzilgan etni hech qachon ishqalamang, massaj ham qilmang. U yordam bermaydi, aksincha, zarar yetkazishi mumkin.

Agar oyoq juda bo'sh va osilib turganga o'xshasa yoki bemor oyoq barmoqlarini harakatlantirishga qiynalsa, tibbiy yordamga murojaat qiling. Uni davolash uchun jarroh yordami kerak bo'lishi mumkin.

ZAHARLANISH

Ko'p bolalar zaharlanishdan nobud bo'ladilar. Bolangizni bunday holatdan saqlash uchun quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling:

Zaharli narsalarni bolalardan uzoqroqda saqlang:



Kerosin, benzin kabi zaharli moddalarni hech qachon salqin ichimliklarning shishalarida saqlamang. Bolalar uni ichib ko'yishlari mumkin.



ODATDA ZAHARLANISHGA SABAB BO'LADIGAN VA EHTIYOT QILIB SAQLASHNI TALAB ETADIGAN NARSALAR:

- kalamush dorisi, margumush
- qo'ylarni dezinfeksiyalovchi suyuqlik va hashoratlarga qarshi ishlatiladigan boshqa zaharli moddalar yoki o'simliklar zahari
- har qanday **temir moddasi bor dorilar** ko'p ichilsa, zarar yetkazishi mumkin
- aynigan ovqat (255-bet)
- yod
- xlorli ohak
- sigaretalar
- spirtlar
- zaharli barg, urug', yovvoyi mevalar yoki qo'ziqorinlar
- benzin, kerosin, bo'yoq suyultirgich
- gugurt (chaqaloq va yosh bolalarga ko'p berilgan-tuz)

Davolash:

Agar zaharlanish xavfi bo'lsa, quyidagilarni **zudlik bilan** qiling:

◆ Agar bola uyg'oq va hushi o'zida bo'lsa, uni qayt qildiring. Barmoqlaringizni tomog'iga soling, undan so'ng 1 piyola tuzlangan iliq suv bering. Yoki unga biroz sovunli (6 choy qoshiq 250 ml suvga) suv ichiring.


◆ Agar tepadagi muolajani qilgan bo'lsangiz, yarim piyola aktivlangan ko'mirni (tuyilganidan 1 choy qoshiqni) bir stakan iliq suvga aralashtirib ichiring. (Katta odamlarga shu aralashmaning 2 piyolasini bering, 430-bet.)

OGO'H BO'LING: Kerosin, benzin yoki kuchli kislota yoki o'yuvchi moddalar (ishqor)ni ichgan odam hushsiz bo'lsa, uni qayt qildirmang.

Agar zaharlangan odam sovqotayotgan bo'lsa, uni o'rab qo'ying, ammo juda isitib yubormang. **Zaharlanish juda jiddiy bo'lsa, darrov tibbiy yordamga murojaat qiling.**


ILON CHAQISHI

Eslatma: Yashayotgan joyingizdagi ilonlar haqida ma'lumot olishga harakat qiling va uni shu betga yozib qo'ying.




Agar biror kishini ilon chaqib olgan bo'lsa, ilonning zaharli yoki zaharli emasligini bilib oling. Ularning chaqish izlari ko'pincha turlicha bo'ladi:

ZAHARLI ILON



EHTIMOL ZAHARI BO'LMAGAN ILON



Odamlar ko'pincha zaharlimas ilonlarni zaharli deb o'ylaydilar. Siz yashayotgan joyda qaysi ilonlar haqiqatdan ham zaharli ekanini bilib olishga harakat qiling. Iltimos, zaharli bo'lmagan ilonlarni o'ldirmang, chunki ular zarar yetkazmaydilar. Aksincha, ular sichqon kabi zarar yetkazuvchi hayvonlarni qiradilar. Ba'zilari esa, hatto zaharli ilonlarni ham o'ldiradi.

Zaharli ilon chaqishida davolash:


1. **Qimirlamang, chaqqan joyni harakat qildirmang.** Shu joy qancha ko'p harakatlantirilsa, zahar organizmga shuncha tez tarqaladi. Agar ilon biror kishining oyog'ini chaqib olgan bo'lsa, bu odam umuman yurmasligi kerak. **Tibbiy yordamga odam jo'nating.**

2. Zargarlik buyumlarni darhol yechib tashlang, chunki chaqqan joy shishib ketishi mumkin


3. Chaqilgan joydagi zaharning tarqalishini sekinlashtirish uchun, uni keng elastik bint yoki toza latta bilan tortib bog'lab qo'ying. Qo'l yoki oyoq bilan harakat qilmang, uni qattiq qilib bog'lang. Ammo bilak yoki oyoq uchida puls sezilmay qoladigan darajada bog'lamang. Agar pulsni sezmasangiz, bog'lamni biroz bo'shating.



4. Qo'l yoki oyog'ini pastdan yuqoriga qarab bog'lab keling. Bo'glash davomida pulsni sezishingiz mumkinligiga e'tibor qiling.



5. So'ng qo'l yoki oyoqni harakatlantirmaslik uchun uni taxtakachaga bog'lab qo'ying (81-bet).



6. Iloji bo'lsa, shikastlangan odamni zambilda eng yaqin tibbiyot maskaniga olib boring. Agar iloji bo'lsa ilonni ham birga olib keting, chunki har xil ilonlarning zahariga qarshi har hil dorilar beriladi (antitoksinlar, 652-bet). Agar zaharga qarshi dori kerak bo'lsa, bog'lamni ukol tayyor bo'lmagunga qadar yechmang va ALLERGIK SHOKka qarshi ehtiyot choralarini ko'ring (159-bet).

7. Og'riqqa qarshi aspirin emas, paratsetamol bering. Agar iloji bo'lsa, qoqsholga qarshi emlang. Agar chaqilgan joy infeksiyalangan bo'lsa, penitsillin bering.

8. Shuningdek muz ham og'riqni pasaytirib, zaharning tarqalishini sekinlashtiradi. Qo'l yoki oyoqni elastik choyshab va qalin latta bilan o'rab qo'ying. So'ng maydalangan muzni atrofiga qo'yib bog'lang. (Ogoh bo'ling: Ko'p sovuqlik teri va go'shtni shikastlashi mumkin. Juda sovub ketganda, u joy og'riy boshlaydi. Shuning uchun jarohatlangan odamning o'zi muzni qachon bir necha minutga olib turish kerakligini hal qilsin.)


Kimnidir ilon chaqib oladigan bo'lsa, bunga darrov chora ko'rish mumkin bo'lishi uchun yashayotgan joyingizda bor ilonlar zahariga qarshi dorini tayyorlab qo'ying va uni qanday ishlatish kerakligini bilib oling.

Zaharli ilonlar chaqishi xavfli. Odamni zudlik bilan tibbiy yordamga jo'nating, lekin yuqorida aytilgan ehtiyot choralarini o'sha zahotiyuq qila boshlang.

Ilon chaqishiga qarshi xalq noan'anaviy davolash usullari yaxshi bo'lganda ham, oz yordam beradi. Ilon chaqqanida, hech qachon spirtli ichimliklar ichmang. Bu ahvolni og'irlashtiradi!

CHAYON VA O'RGIMCHAKLARNING CHAQISHI

CHAYON CHAQISHI



Ba'zi chayonlarning zahari boshqalariga nisbatan ancha kuchli bo'ladi. Kattalar uchun chayon chaqishi uncha xavfli emas. Aspirin iching va iloji bo'lsa chaqqan joyga og'riqni pasaytirish uchun muz qo'ying. Qo'l yoki oyoqda sezgi yo'qolishi va og'riq bo'lishi singari haftalab yoki oylab davom etadigan hodisalarda issiq kompresslar yordam berishi mumkin (373-bet).


Agar, chayon bolaning boshi yoki badanini chaqqan bo'lsa, juda xavlidir. Ayniqsa, u 5 yoshga to'lmagan bolalar uchun juda xavfli. Ba'zi mamlakatlarda chayon chaqishiga qarshi antitoksinlar bor (652-bet).

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Ko'proq yordam beradigan bo'lishi uchun, bularni chayon chaqqan vaqtidan boshlab 2 soat ichida ukol qilish kerak. Og'riqqa qarshi paratsetamol yoki aspirin bering. Agar bola nafas olmay qolsa, og'izdan og'izga nafas berishni boshlang (174-bet). Agar bola juda yosh va chayon uning-tanasini chaqqan bo'lsa yoki chayon „o'ldiradigan chayon“ turidan bo'lsa, tez tibbiy yordamga murojaat qiling.

QORA QURT YOKI BOSHQA ZAHARLI O'RGIMCHAKLARNING CHAQISHI

Ko'p o'rgimchaklar jumladan tarantul chaqishi og'riqli, ammo xavfli emas. „Qora qurt“ yoki bu turga kiruvchi boshqa ba'zi o'rgimchaklar katta odamni ancha kasal qilishi mumkin. Kichik bolalar uchun esa, bu juda xavfli bo'ladi. Qora qurtning chaqishida barcha muskullarning tortishib og'rishi va qorin sohasida juda kuchayib ketadigan qattiq og'riq kuzatiladi. (Ba'zan buni appenditsit bilan adashtirib yuborish mumkin!)



Paratsetamol yoki aspirin bering va tibbiy yordamga murojaat qiling. 10 ml miqdordagi 10% li kalsiy glyukonatni 10 minutdan ortiq vaqt davomida venaga juda sekin ukol qilinsa, bu muskullarning tortishishini pasaytirishga yordam beradi. Shuningdek, diazepam ham, (665-667-bet), yordam berishi mumkin. Agar shok belgilari paydo boshlasa, allergik shokka qarshi davolang, 170-bet. Bolalarga kortizon qilish kerak bo'lib qolishi mumkin. Zaharga qarshi yaxshi dori bor, ammo uni topish qiyin.